

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

«RO'YXATGA OLINDI»

№ vm - 343 - 3400 - 3.17
«09» ___08___ 2003 y.

«TASDIQLANDI»

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi
S.Tulyaiov
«1» iyul 2003 y.**

«PUL, KREDIT VA BANKLAR»

fanidan

DASTUR

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari
uchun**

Tuzuvchilar: i.f.d., prof. Sh.Abdullaeva,
k.o'q. D.A.Saidov.

Taqrizchilar: dots. S.Yu. Arzumanyan - TMI,
dots. I. Toymuxamedov - TDIU.

«Pul, kredit va banklar» fani iqtisodiy fanlarni o'qitishda etakchi fanlardan biri hisoblanadi. Bunda pul, uning mohiyati, funktsiyalari, iqtisodiyotdagi roli; pul aylanishi, uning tarkibiy qismlari; pul tizimi, O'zbekiston Respublikasi pul tizimi; inflyatsiya, uning turlari, sabablari; kredit, funktsiyalari; bank va uning funktsiyalari, tijorat banklarining operatsiyalari; xalqaro munosabatlarda pul, kredit va valyuta munosabatlari bilan bog'liq mavzular yoritiladi.

Предмет “Деньги, кредит и банки” является одним из ведущих предметов по изучении специализации. В нем освещаются такие темы, как, деньги, необходимость и сущность денег, функции, роль денег в экономике, денежный оборот, его составные части, денежная система стран, денежная система Республики Узбекистан, инфляция, ее типы, причины; кредит, его функции; банковская система и ее функции, операции коммерческих банков, деньги в международных отношениях, международные валютно - кредитные отношения и др.

The subject of “Money, Credit and Banking” is one of the leading specialization subject in teaching. There are a lot of topics like: Money, its meaning, functions, the role of money in economy, money circulation, it's containing parts, money system, money system of the Republic of Uzbekistan, inflation, it's types, reasons; Credit, it's functions; Banking system and functions, operations; Money in foreign relations, credit and currency relations taught in it.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (25 aprel 2003 yil 9 - sonli bayonnoma)

1. SO'Z BOSHI

“Pul, kredit va banklar” fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343 - sonli qaroriga asosan tasdiqlangan Davlat ta'lim standarti bo'yicha “Pul, kredit va banklar” fani o'qitiladi.

Pul va kredit ishlab chiqarishni hamda tovar aylanishini tashkil qiluvchi milliy jamg'armani oshishiga olib keluvchi iqtisodiy dastak hisoblanadi. Pul jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, u hammani o'ziga jalb qiladi va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar kredit va bankning bo'lishini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul va pul munosabatlari, kredit va kredit munosabatlar, banklar va bank tizimining roli oshib boradi.

Pul va kredit bozor munosabatlarini olib borishning asosiy vositalaridan hisoblanib, bozor mexanizmining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy pulimiz barqarorligini ta'minlash samarali iqtisodiyotni tashkil qilishning asosi hisoblanadi.

Mazkur kursning asosiy maqsadi va vazifasi pul, kredit va banklar bilan bog'liq savollarga nazariy jihatdan javob berishdan, talabalarga O'zbekiston Respublikasi pul - kredit tizimining tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishining nazariy, amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Pul, kredit va banklar fanidan olgan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlaganidan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

Ushbu kursda pul, uning iqtisodiy mohiyati, funktsiyalari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli, pul aylanishi hamda tarkibiy qismlari, naqd pullik va naqd pulsiz aylanishi, pul tizimi, O'zbekiston Respublikasi pul tizimi, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash asoslari, inflyatsiya, inflyatsiyaning turlari va kelib chiqish sabablari, kredit, va uning turlari, funktsiyalari, bank tizimi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, banklarning funktsiyalari va operatsiyalari, xalqaro munosabatlarda pul, kredit va valyuta munosabatlarining roli kabi savollar nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi shundan kelib chiqqan holda:

- - talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
- - o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlash;
- - fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba pul, kredit va banklar sohasida bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi lozim.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Bu fan ko'pgina iqtisodiy fanlar bilan bog'liq bo'lib, makroiqtisodiy darajada ba'zi bir iqtisodiy jarayonlarda pul, kredit va banklarning roli va o'rnini ko'rsatib beradi.

«Pul, kredit va banklar» fani mutaxassislik fanlarni o'qitishda bazaviy fan hisoblanadi.

«Pul, kredit va banklar» fani quyidagi fanlar: «Bank ishi», «Monetar siyosat va pul kredit orqali muvofiqlashtirish», «Bank menejmenti va marketingi», «Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot» va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Fanni o'qitish davomida zamonaviy audio va video texnikadan foydalaniladi. Ba'zi mavzular bo'yicha video filmlar, slaydlar, jadvallardan foydalaniladi.

Pul muomalasini, kreditlash jarayonini tashkil qilish bo'yicha banklarga sayyor darslar uyushtiriladi.

Fanni o'rganishning asosiy qismi ma'ruzalar va amaliy mashg'ulot darslaridan iborat.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

Fan barcha iqtisodiy mutaxassislarda, jumladan "Bank ishi" yo'nalishida 2 - kursning III - IV - semestrlarida, boshqa mutaxassisliklarda 2 - 3 - kursning IV - V - semestrlari davomida o'qitiladi. Uning mazmunini yoritish ma'ruza, amaliy mashg'ulot darslari, mustaqil ishlar bo'yicha olib boriladi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 189 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 54 soati ma'ruza, 72 soati amaliy mashg'ulotlar. Bundan tashqari, 63 soat hajmda vaqt mustaqil ta'limga ajratilgan.

2. FAN DASTURI

Pulning zarurligi va mohiyati

Tovar ishlab chiqarish va *pulning zarurligi*. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari. Pul tovar qiymatining umumiy ekvivalenti sifatida. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Pul munosabatlarining bozor munosabatlariga muvofiqlashuvi.

Pulning funktsiyalari va roli

Pulning funktsiyalari va ularga tavsif. Pul qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi sifatida. Pul jamg'arma vositasi. Pul funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pulning iqtisodiyotdagi roli. YaIM va pul barqarorligi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda pul barqarorligini ta'minlashning o'rni.

Pul oboroti va uning tuzilishi

Pul oborotiga tavsifnoma va uning tuzilishi. *Naqd pulsiz pul oboroti, uni tashkil qilish tamoyillari, naqd pulsiz hisob - kitoblarning shakllari.* Naqd pulsiz hisob - kitoblarni rivojlantirish istiqbollari. Naqd pul oboroti va uning xususiyatlari. Pul muomalasi qonuni. Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyotida qo'llanilishi. O'zbekistonda pul agregatlari va ularning xususiyatlari.

Inflyatsiya va pul muomalasini barqarorlashtirishning usullari

Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari. Muomaladagi pul massasi va uni boshqarish. Inflyatsiyaning sotsial - iqtisodiy oqibatlarini. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani bartaraf qilish yo'llari.

Pul nazariyasi

Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha. *Pul nazariyalarining turlari va namoyandalari.* Pulning metallik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi va uning manbalari. Pulning miqdoriy nazariyasi. Pulga keynsian, nokeynsian va boshqa qarashlar. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi.

Pul tizimining mohiyati, turlari va elementlari

Pul tizimi va uning asosiy elementlari. *Pul tizimining turlari va ularning evolyutsiyasi.* Turli mamlakatlarning pul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlar pul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarning pul tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining pul tizimi

O'zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi. *O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi.* 1991 - 1993 yillardagi pul

muomalasi. So'mning muomalaga kiritilishi. *1994 yildagi pul islohoti*. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining amaldagi holati va asosiy maqsadi. Pul tizimining barqarorligi. Milliy valyutaning konvertabelligini ta'minlash yo'llari.

Xalqaro valyuta munosabatlari

Xalqaro iqtisodiy aloqalar - valyuta munosabatlarining asosi sifatida. Valyuta tizimi va uning elementlari. *O'zbekiston Respublikasida xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. *O'zbekiston Respublikasining* valyuta qonuniyatlari. Valyuta kursi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Valyuta kurslarining turlari va ularni qo'llash sharoitlari.

Xalqaro hisob - kitoblar operatsiyalari

Xalqaro hisob - kitoblarni tashqil qilish asoslari. *Xalqaro hisob - kitoblarning shakllari*:

- - inkasso bo'yicha hisob – kitoblar;
- - akkreditiv shakli bo'yicha hisob - kitoblar;
- - hisob - kitoblarning boshka shakllari.

Xalqaro hisob - kitob shakllarini qo'llash va hisob - kitoblarni amalga oshirish.

Savdo, to'lov va hisob - kitob balanslari

Mamlakat tashqi savdo balans va uning ahamiyati. To'lov balans, uni tuzish tamoyillari. Uning asosiy qismlari va bo'limlari. Valyuta tushumlari va chiqimlari. To'lov balansining aktiv qoldig'iga erishish yo'llari. Hisob - kitob balans va uning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni.

Kreditning zarurligi, mohiyati va funktsiyalari

Fondlar (kapital) aylanishining o'ziga xos xususiyatlari va kredit zarurligining boshqa omillari. *Kreditning mohiyati va uning funktsiyalari*. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi. Kredit qonuniyatlari va chegaralari. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi roli.

Moliya - kredit resurslari bozori

Moliya bozori va uning tarkibi. *Moliya bozorlari instrumentlari*. Kredit resurslari bozori, uning maqsadi va vazifalari. Fond birjasi. Ularda amalga oshiriladigan operatsiyalar turlari. Fond bozoridagi operatsiyalarni o'tkazish xususiyatari.

Ssuda foizi va uning roli

Ssuda foizining mazmuni va uning funksiyalari. Ssuda foiziga ta'sir qiluvchi omillar. Ssuda foizi normasi va uning o'zgarishi. Bozor munosabatlari sharoitida ssuda foizining roli.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida kreditning roli

Tashqi iqtisodiy munosabatlarda kredit va uning turlari. Tashqi iqtisodiy faoliyatda turli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish istiqbollari. *Xalqaro kreditning funksiyalari.* Hozirgi xalqaro kredit munosabatlarining dolzarb yo'nalishlari.

Xalqaro kredit va uning shakllari

Xalqaro kredit, uning shakllari va ularga tavsifnoma. Chet mamlakatlar bilan kredit munosabatlarini rivojlantirish tarixi va hozirgi zamon muammolari. Eksport va import operatsiyalarini kreditlash. Xalqaro va regional moliya, valyuta va kredit tashkilotlari. Ularning maqsadi va vazifalari.

Ba'zi davlatlarning kredit tizimi

Turli davlatlarning kredit tizimi, ularning umumiy jihatlari, maqsadi va vazifalarining farqli tomonlari. *AQShning kredit tizimi.* *Angliyaning kredit tizimi.* *Germaniyaning kredit tizimi.* *Ayrim Sharq davlatlarning kredit tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.*

Bankning mohiyati va bank tizimi

Banklarning kelib chiqishi va uning mohiyati. Kredit tizimi va uning tuzilishi. *Banklarning vazifalari va funksiyalari.* Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, uning pog'onalari, maqsad va vazifalari.

Maxsus moliya - kredit institutlarining funksiyalari

Jamg'arma banklari, ularning vazifalari va funksiyalari. Kredit kooperatsiyasi. Lizing va faktoring bo'yicha maxsus moliya muassasalari. Sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, ularning vazifalari, funksiyalari va boshqa turdagi moliya - kredit muassasalari.

Markaziy bank va uning operatsiyalari

Markaziy bank va uning tuzilishi. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asoslari, maqsadi, vazifalari va operatsiyalari.* Ba'zi chet el Markaziy banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Banklarning banki sifatida Markaziy bankning faoliyati. Markaziy bankning davlat bilan aloqasi.

Tijorat banklari va ularning funksiyalari

Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslari. *Tijorat bankini tashkil qilish va boshqarish tizimi*. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi. Tijorat banking funktsiyalariga qisqacha tavsif.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish

Tijorat banki faoliyatini tartibga solish Markaziy bankning muhim funktsiyalaridan biridir. *Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlar*. Bank tizimi faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy choralar.

Bankning passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari

Yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'larini bank schetlariga, jamg'armalar qo'yishga jalb qilish bo'yicha passiv operatsiyalar. Depozitlar va ularning salmog'ini kengaytirish istiqbollari. *Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularning turlari*. *Banklarning boshqa operatsiyalari*. Aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish. *Kreditlash tamoyillari, usullari va turlari*.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsion operatsiyalar

Investitsiyalar, ularning mohiyati, maqsadi va iqtisodiyotdagi roli. *Banklarning investitsion siyosati*. Qimmatli qog'ozlar va, ularning tasnifi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va ularning mohiyati.

Banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlash

Bank tizimi faoliyatining barqarorligi. Banklarning to'lovga qobiliyati to'g'risida tushuncha va uni ta'minlash yo'llari. *Bank likvidiligi va uni ta'minlash yo'llari*. *Banklar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar*.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSI

Pulning zarurligi va mohiyati

Pulning zarurligi. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari*. Tovar xo'jaligi – pul mavjudligining asosi sifati. Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi va mohiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Pulning funktsiyalari va roli

Pulning qiymat o'lchovi funktsiyasi qiymat va baho*. Muomala vositasi funktsiyasi va uning mazmuni. Pulning to'lov vositasi funktsiyasi va uni o'ziga xos xususiyatlari. Pulning jamg'arish vositasi funktsiyasi. Pul jamg'armalarining turlari va ularni oshirish yo'llari. Pul funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pulning iqtisodiyotdagi roli*. YaIM va pul barqarorligi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda pul barqarorligini ta'minlashning o'rni.

Pul oboroti va uning tuzilishi

Pul oborotiga tavsifnoma va uning tuzilishi. Naqd pulsiz pul oboroti, uni qo'llanish doirasi*. Naqd pulsiz hisob - kitoblarni tashkil etish asoslari. Naqd pulsiz hisob - kitoblarni rivojlantirish yo'llari. Naqd pul oborotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Muomaladagi pul massasi va uni tartibga solish*. O'zbekistonda pul agregatlari va ularning xususiyatlari.

Inflyatsiya va pul muomalasini barqarorlashtirishning usullari

Inflyatsiya, uning mazmuni, mohiyati, kelib chiqish sabablari va shakllari*. Inflyatsiyaning namoyon bo'lish shakllari. Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar. Inflyatsiyaning sotsial - iqtisodiy oqibatlarini. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani bartaraf qilish yo'llari. Pul islohotlari va ularning ahamiyati.

Pul nazariyasi

Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha. Pul nazariyalarining turlari va namoyandalari. Pulning metallik nazariyasini yuzaga kelishi. Pulning nominallik nazariyasi va uning manbalari*. Pulning miqdoriy nazariyasi. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni.

Pul tizimining mohiyati, turlari va elementlari

Pul tizimi va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni. Pul tizimining asosiy elementlari va ularning tavsifi*. Metallik pul tizimi va uning turlari. Qog'oz va kredit pullar tizimi. Qog'oz pullari va uning muomalada bo'lish qonuniyatlari. Kredit pullari va uning turlari. Turli mamlakatlarning pul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining pul tizimi

O'zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi. Oraliq valyutani joriy qilinish zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining amaldagi holati va asosiy

maqsadi*. Pul tizimining barqarorligi. Milliy valyutaning konvertabelligini ta'minlash yo'llari.

Xalqaro valyuta munosabatlari

O'zbekiston Respublikasini boshqa davlatlar bilan xalqaro valyuta munosabatlarining yuzaga kelishi va ahamiyati. Valyuta tizimi va uning turlari. Valyuta tizimining asosiy elementlari*. Xalqaro iqtisodiy aloqalar - valyuta munosabatlarining asosi sifatida*. Valyuta tizimi va uning elementlari. O'zbekiston Respublikasining valyuta qonuniyatlari. Valyuta kursi va uning ahamiyati. Valyuta kursining o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir qiluvchi omillar.

Xalqaro hisob - kitoblar operatsiyalari

Xalqaro hisob - kitoblarni tashkil qilish asoslari. Xalqaro hisob - kitoblarning ahamiyati. Xalqaro hisob - kitoblarning shakllari:

- - inkasso bo'yicha hisob – kitoblar;
- - akkreditiv shakli bo'yicha hisob - kitoblar;
- - hisob - kitoblarning boshqa shakllari*.

Xalqaro hisob - kitob shakllarini takomillashtirish yo'llari.

Savdo, to'lov va hisob - kitob balanslari

Mamlakat tashqi savdo balansi va uning mazmuni. To'lov balansi, uni tuzish tamoyillari. Uning asosiy qismlari va bo'limlari. Hisob - kitob balansi va uning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni*. To'lov balansining muvozanatini ta'minlash muammolari.

Kreditning zarurligi, mohiyati va funktsiyalari

Fondlarning doiraviy aylanishini ta'minlashda kreditning zaruriyati. Kreditning mohiyati. Kreditning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa kategoriyalar bilan o'zaro aloqadorligi. Kreditning funktsiyalari*. Kreditning shakllari va ularning tavsifi. Kredit qonuniyatlari va chegaralari*. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi roli. Yangi kredit shakllarini tashkil etish va kredit shakllarini takomillashtirish.

Moliya - kredit resurslari bozori

Moliya bozori va uning iqtisodiy ahamiyati. Moliya bozorlari tarkibi. Moliya bozori instrumentlari*. Kredit resurslari bozori va kredit tizimidagi o'rni. Fond

birjasi operatsiyalari va uning rivojlanishi. Ularda amalga oshiriladigan operatsiyalar turlari.

Ssuda foizi va uning roli

Ssuda foizining mazmuni va uning funktsiyalari. Ssuda foizini hisoblash tartibi. Ssuda foiziga ta'sir qiluvchi omillar*. Ssuda foizi normasi va uning o'zgarishi. Bozor munosabatlari sharoitida ssuda foizining roli.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida kreditning roli

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda kreditning o'rni. Kredit va uning rivojlanish istiqbollari. Xalqaro kredit va uning funktsiyalari. Hozirgi xalqaro kredit munosabatlarining dolzarb muammolari. Tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish istiqbollari.*

Xalqaro kredit va uning shakllari

Xalqaro kredit, uning shakllari va ularga tavsifnoma. Chet mamlakatlar bilan kredit munosabatlarini rivojlantirishning tarixi va hozirgi zamon muammolari. Eksport va import operatsiyalarini kreditlash*. Xalqaro va regional moliya, valyuta va kredit tashkilotlari. Ularning maqsadi va vazifalari.

Ba'zi davlatlarning kredit tizimi

AQShning kredit tizimi. Angliyaning kredit tizimi. Germaniyaning kredit tizimi. Ayrim Sharq davlatlarining kredit tizimi.*

Bankning mohiyati va bank tizimi

Banklarning kelib chiqishi va uning mohiyati. Kredit tizimi va uning tuzilishi. Banklarning funktsiyalari*. Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi.

Maxsus moliya - kredit institutlarining funktsiyalari

Jamg'arma banklari, ularning vazifalari va funktsiyalari. Kredit uyushmalari. Lizing kompaniyalari va uning rivojlanishi. Faktoring kompaniyalari va uning ahamiyati. Lizing va faktoring bo'yicha maxsus moliya muassasalari*. Sug'urta kompaniyalari va boshqa turdagi moliya - kredit muassasalari.

Markaziy bank va uning operatsiyalari

Markaziy bank va uning tuzilishi. Markaziy bankning asosiy vazifalari. Markaziy bankning funktsiyalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

faoliyatining asoslari va operatsiyalari*. Ba'zi chet el Markaziy banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari

Tijorat banklari va ularning operatsiyalari. Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslari*. Tijorat bankini tashkil qilish va boshqarish tizimi. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi. Tijorat bankining funktsiyalari.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish

Tijorat banki faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy mazmuni. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish usullari. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlar*. Bank tizimi faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy choralar.

Bankning passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari

Tijorat banklarining passiv operatsiyalari va uning turlari. Depozitlar va ularning salmog'ini kengaytirish istiqbollari. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini iqtisodiy ahamiyati va turlari. Kredit munosabatlarini tashkil etishda kreditlash tamoyillarining o'rni*. Kreditlash usullari va turlari.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsion operatsiyalar

Qimmatli qog'ozlar va ularning klassifikatsiyasi*. Investitsiyalar, uning maqsadi va ularning iqtisodiyotdagi roli. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va ularning mohiyati. Banklarning investitsion siyosati.

Banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlash

Bank tizimi faoliyatining barqarorligi. Banklarning to'lovga qobiliyati va uni iqtisodiy mazmuni*. Banklarni to'lovga layoqatliligini oshirish yo'llari. Bank likvidliligi va uni ta'minlash yo'llari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION TEXNIK VOSITALAR

Internat saytlari: www.bizbook.ru, www.chtivo.ru

Audio video jihozlar – mavzuga bagishlangan video kassetalar

Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:

- - Pul oboroti va uning tuzilishi bo'yicha 2 ta slayd;
- - O'zbekiston Respublikasining pul tizimi bo'yicha 2 ta slayd;
- - Bankning passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari bo'yicha 2 ta slayd;

- - Qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsion operatsiyalar bo'yicha 3 ta slayd.

Ba'zi mavzularni o'qitishda audio va video texnika vositalaridan foydalaniladi.

5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- - joriy baholash (JB) - 35 %;
- - oraliq baholash (OB) - 35 %;
- - yakuniy baholash (YaB) - 30 %.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaBda tinglovchi "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan (yozma ish) usulini o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "qzma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni. - T.: O'zbekiston, 1995.
2. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni . - T.: O'zbekiston, 1996.
3. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari 1995 y 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha – T.: Adolat, 2000
4. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. - T.: O'zbekiston, 1994.
5. I.A.Karimov O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
6. Abdullaeva Sh.Z. Pul va pul tizimi. - T.: O'qituvchi, 1997.
7. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi o'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2000.
8. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
9. Balabanov I.T. *Banki i bankovskoe delo.* – Piter: 2001.
10. Beloglazova G. *Bankovskoe delo.* – Piter: 2002.

11. Beloglazova G.N. Deneznoe obrashchenie i banki. Uch. pos. – M.: FiS, 2000.
12. Bankovskoe delo. Slovar. Per. s angl. - M.: Infra, 2001.
13. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Uchyob. Posobie dlya VUZov / Pod red. Prof. A.N. Tovasheva, N. Yunitidana. – M.: 2001 god
14. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika – M: PRIOR, 2000
15. Valentseva N. Sbornik zadach po bankovskomu delu. Uch. pos. – M.: FiS, 2001.
16. Vorontsova I. Angliyskiy yazik dlya studentov ekon. fak - tov. Uch. pos. - M.: Delo, 2002.
17. Jukova E.F. Dengi, kredit banki - M.: YuNITI, 2001.
18. Jukova E.F. Dengi, kredit banki, tsennie bumagi Praktikum: Uchebnoe posobie - M.: 2001.
19. Jukov E.F. Bankovskoe zakonodatelstvo. Uchebnoe posobie. - M.: YuNITI, 2001.
20. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm sovremennix usloviyax. Monografiya. - T: TGEU, 2000 god
21. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel - iyun. - T.: 2001.
22. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denezno - kreditnogo regulirovaniya. - M.: Finansi i statistika, 2001.
23. Kurakov L. Sovremennie bankovskie sistemi. Uchebnoe posobie. M.: Infra, 2000.
24. Kolesnikov V. Bankovskoe delo. Uchebnik. 4 - e izd. – M.: 2002.
25. Lavrushin O.I. Dengi, kredit i banki. Uchebnik. - M.: FiS, 2002.
26. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. Uchebnik. - M.: 2002.
27. Mullajanov F. Bank tizimi - T.: 2001.
28. Matdin A.M. Dengi i ekonomicheskie resheniya. - M.:2001.
29. Miller L.R., Devid D. Sovremennie dengi i bankovskoe delo - M.: 2000.
30. Maksimov V. Mirovie finansi. - M.: Eng. DeKA. 1998.
31. Nosova S. Osnovi ekonomiki. Uchebnoe posobie. - M.: 2002.
32. Ostrovskaya O. Bankovskoe delo. Tolkoviy slovar. Gelios ARV. M.: 2001.
33. Papov V. Banki na perexode. - M.: 2001.
34. Platonova V. Bankovskoe delo: strategicheskoe rukovodstvo. - M.: 2001.
35. Rodjer Leroy Miller. Sovremennie dengi i bankovskoe delo. - M.: 2000.
36. Senchagov V. Finansi, deneznoe obrashchenie i kredit. Uchebnik. - M.: 2001.

37. Savchuk V.P. Primekko S.I. Velichko E.G. Analiz azborka investitsionnix proektov: Ucheb. posobie – Kiev Elga: 1999.
38. Sviridov O.Yu. Dengi, Kredit, Banki: - 12 - e izd. - M.: Finiks, 2001.
39. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalam – M: Perespektiva, 1998.
40. Tavasieva A.M. Bankovskoe delo: upravlenie i texnologii. Uchebnoe posobie - M.: 2001.
41. Tosunyan G. Finansovoe pravo. Konspekti lektsiy i sxemi. - M.: Delo, 2001.
42. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. *Ekonomika*. - M.: 2001.
43. Sheremet A.D. Finansovi analiz v komercheskom banke. – M.: Finansi i statistika, 2000.
44. Sharifxodjaev M. *Ekonomicheskaya teoriya*. - T.: 1999.
45. Sherrin de Kovin, K. Takki Strategiya xedjirovaniya. - M.: 1997.

Internet saytlari:

www.banking.com - mintaqaviy banklar, assotsiatsiyalar va nashriyotlar bo'yicha bank sanoati resurslari direktorligi.

www.banking.com/aba/ - Amerika banklari assotsiatsiyasi.

www.state.ct.us/dob – konnektikut banklari va kredit birlashmalari, kredit muassasalari va qo'riqlash sanoatini boshqaradi.

www.arraydev.com/commerce/JIBC/ - internet banking va kommertsiya jurnali.

www.bankingtech.com/ - banktexnologiyalari

<http://www.bankeferatov.ru/> - Rubrika Referati, kursovie, diplom na temu «Bankovskoe delo»

<http://books.listsoft.ru/book.asp> – Perevod populyarnogo v Anglii uchebnogo posobiya po izucheniyu bankovskogo dela, ispolzuemogo pri podgotovke k sdache kvalifikatsionnix ekzamenov.

http://www.bizcom.ru/bank_business/index.html – virtualnoe izdatelstvo razlichnix biznes publikatsiy v tom chisle i po «Bankovskomu delu».

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anikin A.V. Zashchita bankovskix vkladchikov. - M.: 1997.
2. Abarina A.M. Kredit i zaymi. - M.: 1997.
3. Gryaznova A. Finansovo - kreditniy entsiklopedicheskiy slovar. – M.: FiS. 2002.
4. Jarkovskaya E. Bankovskoe delo. Kurs lektsiy. - Omega - L: 2002.

5. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari. - T.: 2001.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining me'yoriy hujjatlar tuplami. - T.: 2001